

**UDK: 631.115.1**

## **DEHQON VA TOMORQA XO‘JALIKLARIDA MAHSULOT ISHLAB CHIQRISH TENDENSIYASINING QIYOSIY KO‘RSATKICHLAR TAHLILI**

**Ochilova Nargiza Akramovna -**  
Qarshi muhandislik-iqtisodiyot instituti tayanch doktoranti

## **АНАЛИЗ СРАВНИТЕЛЬНЫХ ПОКАЗАТЕЛЕЙ ТЕНДЕНЦИЙ ПРОИЗВОДСТВА ПРОДУКЦИИ В ДЕХКАНСКИХ И ПОДСОБНЫХ ХОЗЯЙСТВАХ**

**Очилова Наргиза Акрамовна – докторант**  
Каршинского инженерно-экономического института

## **ANALYSIS OF COMPARATIVE INDICATORS OF PRODUCTION PRODUCTION TRENDS IN DEHKAN FARMS AND HOUSEHOLDS**

**Ochilova Nargiza Akramovna – doctoral student**  
Karshi Engineering and Economic Institute

**Annotatsiya.** Ushbu maqolada Qashqadaryo viloyati dehqon xo‘jaliklarida yetishtirilgan dehqonchilik mahsulotlarining tumanlar kesimidagi ulushi, yetishtirilgan asosiy oziq-ovqat mahsulotlarida dehqon va tomorqa xo‘jaliklarining ulushi va hosildorlik ko‘rsatkichlari o‘zgarish tendensiyasi, ayrim dehqon va tomorqa xo‘jaliklarida mahsulot ishlab chiqarish ko‘rsatkichlar tahlili keltirilgan.

**Kalit so‘zlar:** qishloq xo‘jaligi, dehqon xo‘jaliklari, tomorqa yer maydonlari, yalpi hosil, samaradorlik, hosildorlik, xarajat, tendensiya, oziq-ovqat, mahsulot, foyda, rentabellik.

**Аннотация.** В данной статье рассмотрены доля сельскохозяйственной продукции, выращиваемой в хозяйствах Кашкадарьинской области по районам, доля дехкан и подворий в выращиваемых основных продуктах питания и динамика показателей продуктивности, производства продукции в отдельных фермерских и приусадебных хозяйствах, проведен анализ показателей.

**Ключевые слова:** сельское хозяйство, дехканское хозяйство, посевные площади, валовой сбор, эффективность, производительность, стоимость, тенденция, продукты питания, продукт, прибыль, рентабельность.

**Annotation.** This article examines the share of agricultural products grown on farms in the Kashkadarya region by district, the share of farmers and farmsteads in the main food products grown and the dynamics of productivity indicators, production in individual farms and household plots, and an analysis of the indicators.

**Keywords:** agriculture, dekhkan farming, sown areas, gross harvest, efficiency, productivity, cost, trend, food, product, profit, profitability.

### **1. KIRISH**

O‘zbekistonda iqtisodiy islohotlarni chuqurlashtirishning muhim yo‘nalishlari sifatida turli xo‘jalik yuritishning shakllaridan samarali foydalanish agrar sektor rivojida muhim o‘ringa ega. Bunda dehqon va tomorqa xo‘jaliklarining faoliyatini alohida ta’kidlash

lozim. Respublikamiz mintaqalarining tabiiy iqlim va ijtimoiy-iqtisodiy sharoitlaridan kelib chiqqan holda, mavjud yer resurslarini to‘g‘ri taqsimlash va ulardan foydalanish samaradorligini oshirish aholi turmush darajasini yaxshilashga xizmat qiladi. Shu bilan birga, “2030-yilda jahon iqtisodiyoti tiklanishini

hisobga olganda ham, 670 millionga yaqin aholi (dunyo aholisining 8 foizi) ocharchilikka duchor bo‘ladi” [1].

Mamlakatimizda qishloq xo‘jaligi tarmog‘i aholini oziq-ovqat mahsulotlariga, qayta ishlash sanoati tarmoqlarining esa xom-ashyoga bo‘lgan talabini qondiradi. Statistik ma‘lumotlarga ko‘ra, bugungi kunda oziq-ovqat mahsulotlarining 90 foizga yaqini agrar tarmoqda ishlab chiqariladi [2]. Ayni paytda qishloq xo‘jaligi yurtimiz aholisining salmoqli qismini ish o‘rinlari bilan ta‘minlab kelmoqda. Shu jihatdan qishloq xo‘jaligini rivojlantirish - O‘zbekiston Respublikasi iqtisodiyotini rivojlantirishning ustuvor yo‘nalishlaridan biri sifatida e‘tirof etilmoqda.

## 2. MAVZUGA OID ADABIYOTLAR SHARHI

Ayni paytdagi yetakshi iqtisodchi olimlar tomonidan I.Minakov, O.Nazarenko, V.I.Nalsov, P.A.Plashinskiy, M.P.Tushkanov, S.S.G‘ulomov, B.T.Salimov, N.S.Xushmatov, F.Jo‘rayev, R.X.Ergashev, S.N.Xamrayeva, G.T.Samiyeva, Sh.Azizovlarning ilmiy tadqiqot ishlari va maqolalari tahlili hamda O‘zbekistonda ushbu soha amaliyotidan olingan tajribalar shuni ko‘rsatadiki, ko‘pgina chet mamlakatlar qishloq xo‘jaligida, shu

jumladan, yurtimizda hozirgi davrda dehqon xo‘jaliklari va aholining tomorqa yer maydonlarining faoliyatini rivojlantirish, boshqaruv strategiyalarini yaxshilash, yer va suv resurslaridan foydalanish mexanizmlarini takomillashtirish masalalari o‘rganilgan.

## 3. TADQIQOT METODOLOGIYASI

Mavzu yuzasidan ilmiy-tadqiqot ishlarini olib borishda kuzatish, solishtirish, suhbat, anketa so‘rovlari kabi tadqiqot usullaridan foydalanildi.

## 4. ASOSIY TAHLIL VA NATIJALAR

So‘nggi yillarda tez sur‘atlarda o‘sib borayotgan aholining dehqonchilik mahsulotlariga bo‘lgan talabi qishloq xo‘jaligida dehqon xo‘jaligi va aholining tomorqa yer maydonlari faoliyatini takomillashtirish nihoyatda zarur ekanini ko‘rsatmoqda. Natijada bozor talabiga mos qishloq xo‘jaligi mahsulotlarining hajm va sifat jihatidan ko‘payishi, ularni birlamchi va ikkilamchi qayta ishlash, qolaversa yalpi daromadning ortishining muhim omilidir. Dehqon xo‘jaliklari va aholining tomorqa yer maydonlarida innovatsion texnologiyalarni joriy etish va takomillashtirish orqali iqtisodiy samaradorlikka erishish mumkin.

1-jadval

**Qashqadaryo viloyati dehqon xo‘jaliklarida yetishtirilgan dehqonchilik mahsulotlarining tumanlar kesimidagi ulushi [3], % (2010-2022-yillar, o‘rtacha)**

№	Tumanlar	Don	Kartoshka	Sabzavot	Poliz	Meva	Uzum
1	G‘uzor	8,4	1,4	4,5	6,6	2,5	3,5
2	Dehqonobod	12,1	0,9	1,1	1,3	5,3	1,0
3	Qamashi	8,2	3,8	8,0	8,9	5,1	2,1
4	Qarshi	4,5	8,5	11,8	20,6	11,0	19,4
5	Koson	7,9	1,0	9,3	10,3	3,9	1,2
6	Kitob	3,3	16,1	13,6	1,9	11,9	31,7
7	Mirishkor	5,1	5,3	5,4	7,4	4,4	4,2
8	Muborak	8,0	0,4	2,8	5,4	13,4	2,2
9	Nishon	7,5	1,7	3,6	3,5	3,0	0,8
10	Kasbi	4,3	2,7	4,1	4,1	7,7	3,8
11	Chiroqchi	20,1	12,7	11,7	19,1	4,5	11,7
12	Shahrisabz	5,3	27,4	12,5	1,4	19,3	9,5

13	Yakkabog‘	4,9	13,3	8,1	9,3	5,7	6,9
14	Qarshi sh.	x	0,2	0,6	x	0,4	0,2
15	Shahrisabz sh.	0,4	4,6	2,9	0,2	1,9	1,8
	<b>Jami:</b>	<b>100</b>	<b>100</b>	<b>100</b>	<b>100</b>	<b>100</b>	<b>100</b>

1-jadvalda asosiy oziq-ovqat mahsulotlarini yetishtirishda tumanlar ulushi aks ettirilgan. Unga ko‘ra, don yetishtirishda Chiroqchi tumani eng yuqori natijani ko‘rsatgan bo‘lsa, kartoshka yetishtirish bo‘yicha Shahrisabz tumani birinchi o‘rinda turibdi. Kitob tumanida sabzavotchilik va uzumchilik yaxshi rivojlangani ko‘rinib turibdi. Shuningdek, meva yetishtirish bo‘yicha Qarshi va Kitob tumanlari Shahrisabzdan keyingi o‘rinda turibdi. Ammo, don yetishtirishda Kitob, kartoshkachilikda Dehqonobod va Muborak, meva yetishtirishda esa, Koson va Nishon tumanlari past ko‘rsatkichlarga ega ekanligi ushbu tumanlarda mahsulot yetishtirish bilan bog‘liq muammolar mavjudligini ko‘rsatadi.

Qishloq xo‘jaligi sohasidagi muam-molarni bartaraf etish maqsadida, so‘nggi yillarda fermer, dehqon xo‘jaliklari va tomorqa yer egalarning huquqlari va qonuniy manfaatlarini himoya qilishning samarali tizimi

yaratilib, yer egalarning ekin maydonlaridan samarali foydalanishdagi shaxsiy manfaatdorligi va mas‘uliyati oshirildi. Shu o‘rinda viloyatda yetishtirilgan asosiy oziq-ovqat mahsulotlarida dehqon va tomorqa xo‘jaliklarining ulushi va hosildorlik ko‘rsatkichlaridagi o‘zgarish dinamikasini ko‘rib chiqish maqsadga muvofiq (2-jadval).

2-jadvalda 2010 – 2022-yillar davomida ayrim dehqonchilik mahsulotlarini ishlab chiqarishda dehqon va tomorqa xo‘jaliklarining ulushi, hosildorlik ko‘rsatkichlari aks ettirilgan. Demak, 2022-yilda 2010-yilga nisbatan 1,7 foizga, kartoshka 4,6 foizga, poliz 1,9 foizga va uzum 3,5 foizga ko‘paygan. Meva yetishtirishda esa, 2,4 foizga kamayish kuzatilgan. Hosildorlik ko‘rsatkichlarini tahlil qilsak, dehqon va tomorqa xo‘jaliklarida yetishtirilgan mahsulotlarning hosildorlik darajasi o‘rtachadan yuqori ekanligini ko‘rsatmoqda.

2-jadval

**Qashqadaryo viloyatida yetishtirilgan asosiy oziq-ovqat mahsulotlarida dehqon va tomorqa xo‘jaliklarining ulushi va hosildorlik ko‘rsatkichlari o‘zgarish tendensiyasi [3]**

Ko‘rsatkichlar	O‘lchov birligi	YILLAR					2022 y.da 2010 y.ga nisb. o‘zgarishi, %
		2010	2015	2020	2021	2022	
<b>Sabzavot:</b>							
dehqon va tomorqa xo‘jaliklardagi ulushi;	foiz	69,7	71,1	72,7	71,1	71,4	1,7 foizga ko‘paygan
o‘rtacha hosildorlik	s/ga	225,7	261,7	209,8	229,4	241,1	106,8
sh.j. dehqon va tomorqa xo‘jaliklari	s/ga	256,8	302,4	270,1	267,4	258,2	100,5
<b>Kartoshka:</b>							
dehqon va tomorqa xo‘jaliklardagi ulushi;	foiz	78,9	77,6	83,2	83,1	83,5	4,6 foizga ko‘paygan
o‘rtacha hosildorlik	s/ga	224,3	216,0	229,1	231,4	236,3	105,3
sh.j. dehqon va tomorqa xo‘jaliklari	s/ga	231,7	227,1	242,8	237,4	235,7	101,7
<b>Poliz:</b>							

dehqon va tomorqa xo'jaliklardagi ulushi; o'rtacha hosildorlik	foiz	51,6	48,0	54,9	54,1	53,5	1,9 foizga ko'paygan
sh.j. dehqon va tomorqa xo'jaliklari	s/ga s/ga	218,5 231,6	202,5 251,0	229,4 268,8	233,5 251,6	237,3 257,4	108,6 111,1
<b>Meva:</b> dehqon va tomorqa xo'jaliklardagi ulushi; o'rtacha hosildorlik	foiz	40,9	43,9	37,8	38,2	38,5	2,4 foizga kamaygan
sh.j. dehqon va tomorqa xo'jaliklari	s/ga s/ga	96,6 150,7	94,3 153,8	94,3 153,6	97,5 146,3	100,8 139,7	104,3 92,7
<b>Uzum:</b> dehqon va tomorqa xo'jaliklardagi ulushi; o'rtacha hosildorlik	foiz	48,4	47,8	49,2	50,4	51,9	3,5 foizga ko'paygan
sh.j. dehqon va tomorqa xo'jaliklari	s/ga s/ga	116,4 173,4	117,1 178,5	119,7 178,5	120,6 180,4	121,0 183,9	103,9 106,1

Aholi orasida oziq-ovqat xavfsizligini ta'minlash maqsadida, mahsulotlarning nafaqat hajm jihatdan oshirilishi, balki sifat jihatdan ham yuksaltirilishi maqsadga muvofiqdir. Qishloq xo'jaligi aholisi orasida tomorqa xo'jaligini yanada rivojlantirishning imkoniyatlari, har bir oila o'z tomorqa xo'jaligidan foydalanishi qanchalik darajada unumdor ekanligi, tomorqada ekin ekishning boshqa faoliyat turlariga ta'sirini o'rganish ijobiy natija berishini alohida ta'kidlash lozim.

Har qanday hududda qishloq xo'jaligini rivojlantirish uchun avvalo, yer bilan bog'liq muammolar bartaraf etilishi lozim. Tomorqa

yer maydonlaridan samarali va oqilona foydalanishda bunday muammolarning asosli yechimlari katta ahamiyatga ega. Iqtisodiyotni qayta tashkil etish, mulkchilik shakllarini o'zgartirish va qishloq xo'jaligi rivojlanishini tartibga solishning bozor mexanizmlariga o'tish borasida so'nggi yillarda amalga oshirilgan chora-tadbirlar fermer va dehqon xo'jaliklarini keng rivojlantirish zarurligini hozirgi davrning o'zi aniq belgilab berdi. Shu o'rinda viloyatning ayrim tumanlaridagi dehqon va tomorqa xo'jaliklarida ishlab chiqariladigan mahsulotlarning ko'rsatkichlarini o'rganib chiqdik (3-jadval).

### 3-jadval

#### Qashqadaryo viloyati ayrim dehqon va tomorqa xo'jaliklarida mahsulot ishlab chiqarish ko'rsatkichlar tahlili (2022 yil) [12]

№	Dehqon xo'jaligi va aholi tomorqa yer maydoni nomi	Joylashgan hududi	Ekin maydoni, ga	Mahsulot turi	Sarflangan xarajat, ming so' m	Olingan daromad, ming so' m	Foyda, ming so' m
1	M.Tojiddinov d/x	Koson t.	1	poliz	8000	21000	13000
2	A.Xamrayev d/x	Koson t.	1	sabzavot	8500	19000	10500
3	B.Sobirov t/x	Shahrisabz	0,12	meva	2800	9300	6500
4	T.Alimov t/x	Chiroqchi t.	0,3	sabzavot	6700	15000	8300
5	B.Tojiddinova t/x	Koson t.	0,2	sabzavot ko'chati	2800	6500	3700
6	D.Shodiyev t/x	Koson t.	0,2	xonaki gullar	6065	15950	9885
7	M.Ikromov t/x	Qarshi t.	0,5	poliz	4700	7900	3200

8	A.Meyliyev t/x	Chiroqchi t.	0,4	sitrus va sabzavot	5300	18500	13200
9	SH.Murodov	Mirishkor	0,25	uzum	3451	6547	3096

Tadqiqot davomida, Qashqadaryo viloyatining Chiroqchi tumanida tashkil etilgan 0,12 ga “A.Meyliyev” nomli tomorqa xo‘jaligining 0,02 ga yer maydonida limon ko‘chatlari tashkil etilgan bo‘lib, 3,9 mln.so‘m xarajat qilingan. Daromad esa 7 mln.so‘mdan iborat bo‘lgani holda, 3,1 mln.so‘m sof foydaga erishilgan. 0,02 ga issiqxonada pomidor ekib, bir yilda ikki marta hosil olib, 11,5 mln. so‘m daromadga ega bo‘lingan. Tomorqaning 0,08 ga qismida doimiy ravishda kartoshka, sabzi, sholg‘om kabi ozuqa ekinlari yetishtirib yuqori hosildorlikka erishmoqda. Tomorqa yer egasining ta’kidlashicha, asosiy daromad manbai tomorqa asosida shakllanadi.

Shuningdek, olib borilgan monografik tadqiqotlarga ko‘ra, “T.Alimov” nomli tomorqada 3 sotix yer maydoniga ega bo‘lgan issiqxonada bir yilda 3 marta pomidor hosil va jami 15 million so‘m daromad olinganligi aniqlandi.

Ushbu tumanda o‘z tomorqasi orqali oilasiga katta daromad keltirayotgan Koson

tumanidagi tomorqa yer egasi B.Tojiddinova esa, 2 sotixli tomorqadan issiqxona shaklida foydalanib, urug‘dan pomidor ko‘chatini yetishtirib, oila ehtiyojlarini faqat tomorqadan olinadigan daromad evaziga ta‘minlab kelmoqda. Bir mavsumdagi xarajat 2,800 ming so‘mni tashkil etib, 6,500 ming so‘m daromadga ega bo‘lgan, sof foyda 3,700 so‘mdan iborat. Qishloq aholisining tomorqa yer maydonlarida dehqonchilik faoliyatini yo‘lga qo‘yish orqali aholini ish bilan ta‘minlash, oilalarning real daromadlarini oshirish, ularning ijtimoiy ahvolini yaxshilashga erishiladi. Qashqadaryo viloyati statistika qo‘mitasi ma‘lumotlariga ko‘ra, 2023-yil 1-yanvar holatida 611459 nafar tomorqa xo‘jaliklari faoliyat yuritayotgan bo‘lib, ularga birlashtirilgan yerlarning umumiy maydoni esa 65 945 gektarni tashkil etadi [3]. Tabiiyki, ko‘p qavatli uylarda istiqomat qiluvchilar hisobga olinmaydi, qishloq va mahallalarda yashovchi aksariyat xonadonlar tomorqa yerlariga ega.

#### 4-jadval

**Nishon tumani “N.Qodirov” tomorqa xo‘jaligida an’anaviy va innovatsion usulda poliz mahsulotlari ishlab chiqarishning iqtisodiy samaradorlik ko‘rsatkichlari [13], mln.so‘m (2022-yil)**

№	Ko‘rsatkichlar	O‘lchov birligi	An’anaviy usulda	Innovatsion usulda (vertikal ishlab chiqarish)	Farqi, +/- (ko‘p)
1	Ekin maydoni,	Sotix	8	7	-1
2	Jami xarajatlar, sh.j.	mln.so‘m	28,12	17,05	-11,07
-	1 sotixga sarflangan xarajatlar	mln.so‘m/sotix	3,52	2,4	-1,12
2.1	Ekish jarayonida	mln.so‘m	9,21	5,1	-4,11
2.2	Sug‘orish jarayonida	mln.so‘m	11,4	7,85	-3,55
2.3	Yig‘ib olish jarayonidagi yo‘qotishlar hisobidan	mln.so‘m	7,51	x	x
2.4	Innovatsion texnologiyani joriy etish bilan bog‘liq xarajatlar	mln.so‘m	x	4,1	x
3	Olingan daromad	mln.so‘m	39,75	52,14	12,39
4	Sof foyda	mln.so‘m	11,63	35,09	23,46

5	Rentabellik	%	41,4	205,8	x
6	Kiritilgan innovatsion texnologiya hisobidan olingan qo‘shimcha sof foyda	mln.so‘m	x	23,46	23,46
7	Innovatsion texnologiyaning iqtisodiy samaradorlik koeffitsiyenti		x	5,7	x
8	Innovatsion texnologiyani qoplash muddati	Oy	x	2 oy	x

Innovatsiyalar qishloq xo‘jaligida ishlab chiqarishni modernizatsiya qilishda asos bo‘ladi, mahsulotning raqobatbardoshligini va xo‘jalikning eksport salohiyatini oshiradi. Demak, to‘g‘ri tanlangan innovatsiya yo‘nalishi dehqon va tomorqa xo‘jaliklarining nafaqat iqtisodiy ko‘rsatkichlarini yuksaltiradi, balki uning agrar sektordagi ulushini oshiradi. Qolaversa, buning natijasida xo‘jaliklarning qishloq xo‘jaligi mahsuloti ishlab chiqarish bo‘yicha tajribasi va ishchi xodimlarning malakasi oshadi, shaxsiy mablag‘i ko‘payadi, ularning ilmiy tadqiqot institutlari, tomorqa xizmati va boshqa ilmiy markazlar hamda xalqaro agrar tashkilotlar bilan hamkorlik aloqalari mustahkamlanadi.

Nishon tumani “N.Qodirov” tomorqa xo‘jaligida olib borilgan monografik tadqiqotlarga ko‘ra, poliz ekinlarini an‘anaviy va vertikal ishlab chiqarishni joriy etishning iqtisodiy samaradorlik ko‘rsatkichlari tahlil etilgan. Tahlil natijalariga ko‘ra, poliz ekinlarini innovatsion usul orqali yetishtirishda iqtisodiy samarasi yuqori bo‘lishi aniqlandi, ya‘ni bunda an‘anaviy usulga nisbatan

rentabellik darajasi 5 martaga ko‘proq ekanligi hisoblab chiqildi.

## 5. XULOSA VA TAKLIFLAR

Qishloq xo‘jaligi mahsulotlarini ishlab chiqarishda dehqon xo‘jaliklarining ulushini yanada oshirish uchun quyidagilarga alohida e‘tibor berish lozim, deb hisoblaymiz:

- dehqon xo‘jaligiga tegishli yerlarni me‘yoriy talablardan kelib chiqqan holda iqtisodiy baholash;

- mahsulot yetishtirish jarayonida hududiy tabiiy-iqlim sharoitlarini hisobga olgan holda ishlab chiqarish jarayonini diversifikatsiya qilish;

- tomorqa xizmatidan unumli foydalanish va agro infratuzilmani yanada rivojlantirish;

- xorijiy mamlakatlarning ilg‘or tajribasidan samarali foydalanish (vertikal ishlab chiqarish, innovatsion va raqamli texnologiyalarni qo‘llash);

- xarajatni kamaytirib, daromadni oshiruvchi iqtisodiy omillarni o‘rganish va tegishli vazifalarni amalga oshirish va boshqalar.

### Foydalanilgan adabiyotlar ro‘yxati:

1. Доклад ООН: В 2021 году число голодающих в мире достигло 828 млн. <https://www.fao.org/newsroom/detail/un-report-global-hunger-SOFI-2022-FAO/ru>.
2. O‘zbekiston Respublikasi Prezidenti huzuridagi Statistika agentligi ma’lumotlari
3. Qashqadaryo viloyati statistika boshqarmasi ma’lumotlari asosida hisoblangan
4. Ergashev, R. K., Khamraeva, S. N., & Fayzieva, S. S. (2020). Innovative development of agricultural infrastructure: problems and ways of its achievement.
5. Khamraeva, S. N., & Samieva, G. T. (2022). ECONOMIC ANALYSIS OF THE DEVELOPMENT OF THE HOUSEHOLD SERVICE NETWORK IN UZBEKISTAN AND THE CREATION OF A COMPETITIVE ENVIRONMENT IN LOCAL HOUSEHOLD SERVICE ENTERPRISES. *ECONOMIC ANALYSIS*, 30(3).

6. Ochilova, N. A. (2023). FARMING MANAGEMENT AND THEIR ECONOMIC EFFICIENCY. *INNOVATION IN THE MODERN EDUCATION SYSTEM*, 3(28), 177-184.
7. Ochilova, N. A. ECONOMIC PERFORMANCE OF DEHKAN FARMS IN KASHKADARYA REGION. *GWALIOR MANAGEMENT ACADEMY*, 117.
8. Ochilova, N. (2023, October). USE OF THE ADVANCED EXPERIENCE OF FOREIGN COUNTRIES IN THE DEVELOPMENT OF FARMING AND HOUSEHOLDS. In *International Conference on Multidisciplinary Research* (Vol. 1, No. 6, pp. 73-76).
9. Ochilova, N. A. Improving the Use of Agricultural Land in Kashkadarya Region. *International Journal on Economics, Finance and Sustainable Development*, 4(3), 49-54.
10. Ochilova, N. A. (2023). Use of the Advanced Experience of Foreign Countries in the Development of Peasant and Homestead Farms. *International Journal of Formal Education*, 2(11), 267-274.
11. Muallif tomonidan o‘tkazilgan so‘rovnoma natijasi
12. Nishon tumani “N.Qodirov” tomorqa xo‘jaligi ma’lumotlari